



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR ICHKI AUDITINI TASHKIL ETISH

ORGANIZATION OF INTERNAL AUDIT OF NON-PERFORMING LOANS IN COMMERCIAL BANKS

¹**Umarov Zafar
Absamatovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank hisobi va auditi"
kafedrası mudiri, i.f.n., professor. **Orcid:** 0000000343897025*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari, ularning bank faoliyatiga ta'siri va ichki audit tizimi orqali nazorat qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Muammoli kreditlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli, ichki audit xizmatining roli va samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Maqolada muammoli kreditlarni aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha ichki audit amaliyotlari va ularning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Eng. - This article analyzes the causes of the emergence of non-performing loans in commercial banks, their impact on bank operations, and the control mechanisms through the internal audit system. Since non-performing loans negatively affect the financial stability of commercial banks, enhancing the role and effectiveness of the internal audit function is of great importance. The article examines internal audit practices for identifying, assessing, and reducing non-performing loans, as well as ways to improve their effectiveness.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ *muammoli kredit, tijorat banki, ichki audit, kredit riski.*
- ❖ *non-performing loan, commercial bank, internal audit, credit risk.*

Kirish.

Bugungi global moliya bozorlarida tijorat banklarining kredit faoliyati asosiy daromad manbai hisoblanadi. Biroq, har qanday kreditlash jarayonida ma'lum darajada risk mavjud bo'lib, ayrim hollarda bu kreditlar o'z vaqtida qaytarilmaydi va muammoli kreditlarga aylanadi. Muammoli kreditlar bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'satuvchi asosiy muammolardan biri bo'lib, ichki audit tizimi orqali bunday xavflarni oldindan aniqlash va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin.

Respublikamizda auditorlik faoliyatini shu jumladan banklarda ichki audit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy

hujjatlar qabul qilinganligiga qaramay, auditni, xususan, bank auditini xalqaro andozalar talablariga javob beradigan darajada tashkil qilish uchun hozirgi sharoitda amaldagi me'yoriy hujjatlarga ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zaruriyati tug'ilmoqda. Umuman, jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni qon tomiri bo'lgan banklar faoliyatini yanada erkinlashtirish, fuqarolarni banklarga bo'lgan ishonchini oshirish, hamda respublika iqtisodiyotiga chet el saromoyadorlarini tijorat banklari orqali jalb qilishda banklarning ichki audit tekshiruvidan o'tkazish muhim bo'lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

D.Toshpulatov fikriga ko'ra, muammoli kreditlar ichki auditida kredit ajratilgan subyektlarning mulkchilik shakli, summasi, kredit turlari va muddatlari bo'yicha alohida auditorlik tekshiruvini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi [2]. Toshpulatov tomonidan taklif etilgan muammoli kredit auditi segmentatsiyasi (mulkchilik shakli, summa, turi va muddati bo'yicha) aslida ma'lum darajada samara beradi. Lekin, u muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablarini to'liq qamrab olmaydi. Audit jarayonida faqat formal tasniflarga emas, balki riskning yuzaga kelish sabablari, qarz oluvchi strategiyasi, tarmoq dinamikasi va kreditni qaytarish vositalari asosida tahlil qilish ko'proq samara beradi. Shuning uchun zamonaviy ichki audit jarayoni mazmunan to'liq, riskga asoslangan, va ijobiy ta'sirli qarorlar chiqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kurnikina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat banklarining kredit operatsiyalari auditi jarayonida bankning ishlab chiqilgan hisob siyosatiga muvofiq ravishda balans va balansdan tashqari hisobvaraqlarda ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobiga to'g'ri aks ettirilishi tekshirilishi lozimligi qayd etiladi [3]. Zamonaviy bank amaliyotida ichki audit faqat "hisobda xato bormi-yo'qmi"ni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki risklarni erta aniqlash, siyosatni tanqidiy tahlil qilish hamda strategiyaga ta'sir ko'rsata oladigan yechimlar taqdim etish kabi funksiyalarni ham bajaradi. Shu sababli, ichki audit faoliyatiga yanada kengroq va tizimli yondashish talab etiladi.

Himoyaning uchinchi chizig'i (Three Lines of Defense model) odatda ichki audit funksiyasini o'z ichiga oladi. U biznes faoliyatini amalga oshiruvchi funksiyalardan to'liq mustaqil bo'lishi kerak va muammoli kreditlar (NPL) ulushi yuqori bo'lgan banklarda yetarli darajada kompetentsiyaga ega bo'lishi lozim. Bu esa ichki audit tizimining samaradorligi va ta'sirchanligini (birinchi va

ikkinchi darajali nazoratlarni ham o'z ichiga olgan holda) muammoli kreditlar bilan bog'liq tendensiyalarni davriy tekshiruvlar orqali baholash imkonini yaratadi [4]. Yevropa Markaziy banki ichki audit xizmatini risklardan himoyalovchi uchinchi chiziq sifatida ko'rib chiqadi. Ichki audit yuqori darajadagi bilim va malakani talab qiladi hamda doim mustaqil, universal va strategik faoliyat yurituvchi organ bo'lib qolishi bank barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Aksariyat tijorat banklarining muammoli aktivlari tarkibida muammoli kreditlar asosiy ulushni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli nizomiga muvofiq, muammoli aktivlar – sifati "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" kabi ko'rinishlarda tasniflanadi [1]. Markaziy bank muammoli aktivlarni, jumladan, muammoli kreditlarni asosan ularni qaytarilishiga e'tibor bergan holda tasniflaydi deb aytish mumkin, holbuki ba'zi aktivlar hozirgi kunda to'liq qaytarilmasada, keyinchalik qoplanishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank tijorat bankining ichki audit xizmati va boshqaruvidan har chorakda balans hisobidan chiqarib, balansdan tashqari hisobvaraqlarga o'tkazilgan "umidsiz" kreditlarni undirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida bank Kengashiga yozma ma'lumot taqdim etishni belgilab qo'ygan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda dialektik mantiq, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik va umumlashtirish, ekspert baholash usullaridan, shuningdek, mavzuga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bank ichki auditi, avvalo, bankning ichki nazorat tizimi holati, shu jumladan risklarni aniqlash va samarali boshqarish, boshqaruv tizimi va biznes jarayonlarning sifati hamda ular faoliyatining muvofiqligi va samaradorligi yuzasidan mustaqil baho berishga qaratilgan. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash ham ichki audit faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli kredit riskka asoslangan auditning asosiy obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Riskka asoslangan auditning qo'llanilishi kreditlash jarayonidagi ichki nazorat tizimidagi kamchilik va zaif tomonlarni aniqlash hamda ularni samarali boshqarish imkonini yaratadi. Ushbu yondashuv ichki audit faoliyatining rejalashtirilgan, ustuvor risk sohalariga yo'naltirilgan tarzda olib borilishini ta'minlaydi. Natijada audit jarayoniga sarflanadigan vaqt va resurslar tejaladi, shuningdek, ichki audit amaliyotining umumiy samaradorligi oshadi.

Ichki auditor tomonidan kredit operatsiyalari auditini o'tkazish jarayonida nafaqat tegishli ichki nizom talablari, balki xalqaro standart va tamoyillarga ham qat'iy rioya qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining banklarda ichki auditga oid tamoyillari, Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan Ichki auditning xalqaro kasb standartlari, shuningdek, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Auditning xalqaro standartlari (ISA) ushbu jarayon uchun asosiy metodologik yo'riqnomalar sifatida xizmat qiladi. Ularning amaliyotga tatbiqi audit sifati, aniqligi va mustaqilligini oshirishga, shuningdek bankda risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muammoli kreditlar ichki audit tekshiruv orqali bankning ichki nazorat tizimi samaradorligi baholanadi, shuningdek, mazkur

faoliyat bilan bog'liq risklar chuqur tahlil qilinadi. Ichki audit jarayonida aniqlangan kamchiliklar va mavjud risklarga nisbatan ilgari surilgan tavsiyalar ichki audit hisobotlarda o'z ifodasini topadi va ular bank rahbariyatiga yetkaziladi. Bunday yondashuv ichki audit jarayonining sifatli tashkil etilishiga xizmat qilib, rahbariyatning risklar, kamchiliklar va tahdidlar to'g'risidagi xabardorligini oshiradi. Shu tariqa, ichki audit nafaqat nazorat funksiyasini, balki strategik qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai vazifasini ham bajaradi.

Muammoli kreditlar auditi, umumiy kreditlash amaliyotlarini qamrab oluvchi audit jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Biroq, muammoli kreditlar ulushi bank kredit portfelida sezilarli darajada oshib ketgan holatlarda, ushbu masalani alohida audit obyekti sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv muammoli qarzlarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish, ular bilan bog'liq moliyaviy va huquqiy risklarni aniqlash hamda bartaraf etish choralari ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, muammoli kreditlar bo'yicha mustaqil audit olib borish, kredit portfelining barqarorligi va umumiy moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.


Muammoli kreditlarni o'z vaqtida aniqlash tizimini shakllantirish bank amaliyotidagi eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda inson omili asosiy to'siqlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, muammoli kreditlarga javobgar bo'lgan mas'ul xodimlar bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganini anglab, tanqid va jazodan qo'rqib, kredit portfelidagi risk alomatlarini yashirishga harakat qilishlari mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday kreditlar aniqlangach, vaziyat ko'pincha oldindan baholanganidan ham murakkabroq bo'lib chiqadi. Natijada, muhim profilaktik choralarni ko'rish davri qisqaradi, bu esa muammoli kreditlarning

yanada ko'payishiga va bankning moliyaviy barqarorligiga yanada katta xavf tug'diradi. Shuning uchun, erta aniqlash va ochiqlikni ta'minlash ichki audit va nazorat tizimlarining samarali faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi.

Banklarda kredit portfelining sifatini saqlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida, muammoli kreditlarning erta bosqichda aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, ayniqsa, kredit bo'limi xodimlari tomonidan e'tibordan chetda qolgan yoki turli sabablarga ko'ra ongli ravishda yashirilgan riskli alomatlarni fosh etish bank faoliyatining barqarorligi uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bank ichki audit

xizmati doimiy ravishda mustaqil va xolis tekshiruvlarni amalga oshirib, nafaqat amaldagi kreditlash amaliyotlarini tahlil qilish, balki muammoli kreditlarga olib kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy risklarni barvaqt aniqlash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ichki auditorlar muammoli kreditlarning bank kredit portfeliga ta'sirini baholaganda, uning kredit portfelidagi ulushi, kredit bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashni amalga oshirish maqsadga muvofiq. 1-rasmda O'zbekiston Respublikasi banklarining muammoli kreditlar hamda kredit va lizing operatsiyalari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashning kredit qo'yimalardagi ulushi ko'rsatilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi banklarining muammoli kreditlar, kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashlarning kredit qo'yimalardagi ulushi (foizda) [6]

Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga asosan tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ning kredit qo'yimalardagi ulushi 2020-2024-yillar oralig'ida tebranib, 2020-yilda ularning ulushi past bo'lgan, 2021-yilda muammoli kreditlar ulushi keskin o'sishni boshlagan va 5,8 foizgacha ko'tarilgan, 2022-2023-yillarda nisbatan pasayish kuzatilgan, 2024-yil yakunida esa usbu ko'rsatkich 4,0 foizga teng bo'lgan. Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashning kredit

qo'yimalardagi ulushi nisbiy ulushda tahlil qilingan davrda muammoli kreditlarni qoplash uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Ichki audit jarayonida aniq va ishonchli xulosalar chiqarish uchun ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ichki auditorlar har bir bosqichda topshiriqning maqsadlari va ko'lamini hisobga olgan holda, ma'lumotlarning to'g'riligini va ishonchliligini tekshirishlari lozim.

Tahliliy amallarni amalga oshirish kredit riskini aniqlash va baholash, bankning risk-appetit (riskni qabul qilish darajasi) parametrlariga muvofiqligini aniqlash, kredit rejaları bajarilishining monitoringi, kredit siyosati talablariga rioya etilishi, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi, shuningdek, kreditlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu tahliliy yondashuv muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish choralari aniqlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu esa nafaqat ichki nazorat tizimi va risklarni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlashga, balki bank faoliyatining umumiy shaffofligi, moliyaviy intizomi va operatsion samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ichki auditor tijorat banklarida mavjud muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda ularni samarali boshqarish maqsadida aniqlangan muammolar asosida amaliy tavsiyalar berishga mas'ul hisoblanadi. Bu borada auditor tomonidan bankka taqdim etiladigan takliflar tizimli va aniq yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Xususan, quyidagi usullar va chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

kredit ta'minoti sifatida olingan garov aktivlarini amaldagi qonunchilik doirasida sotish orqali qarzni qisman yoki to'liq qoplash;

qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish, ya'ni restrukturizatsiya qilish orqali qarzni qaytarish imkoniyatlarini oshirish;

mijozning amaldagi moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va uning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirishga qaratilgan choralar tuzish orqali kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash.

Ushbu chora-tadbirlarning o'z vaqtida va asoslangan holda amalga oshirilishi, nafaqat muammoli kreditlarni kamaytirish, balki

bankning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavjud moliyaviy va amaliy sharoitlardan kelib chiqqan holda, tijorat banklari uchun muammoli kreditlarning shakllanishini oldini olish hamda amalda mavjud muammoli qarzlarni samarali bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish, kreditlash standartlarini qayta ko'rib chiqish, qo'shimcha ta'minot va riskni baholash usullarini takomillashtirish orqali muammoli kreditlar ulushini keskin kamaytirish mumkin. Shuningdek, muammoli kreditlarni qaytarish bo'yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, bank aktivlarining likvidligi va umumiy moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu tariqa, ichki audit natijalari kreditlash jarayonida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish, shuningdek, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega vosita sifatida xizmat qiladi. Kreditlarning sifatini muntazam nazorat qilish va ularga doir risklarni samarali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarining kredit faoliyati asosiy daromad manbai hisoblanadi. Biroq bu jarayon doimo kredit risklari bilan birga kechadi. Aynan shu sababli, muammoli kreditlar banklar uchun jiddiy tahdid sifatida qaraladi va ularni samarali boshqarish, ayniqsa, ichki audit orqali erta aniqlash va baholash zamonaviy bank faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Muammoli kreditlar auditi ichki auditning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u riskka asoslangan yondashuv orqali kredit portfelidagi xavf omillarini aniqlash, ularni

kamaytirish choralarini ishlab chiqish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ichki audit faqat buxgalteriya xatolarini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, bank siyosati va strategik qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi axborot manbai sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Muammoli kreditlarni boshqarishda ichki audit xizmatining samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi: kredit risklarining erta aniqlanishi; kredit siyosati va jarayonlarining tizimli tahlili; xalqaro ichki audit standartlariga asoslangan tekshiruvlar o'tkazilishi; mustaqil va xolis audit xulosalarining taqdim etilishi; strategik tavsiyalar ishlab chiqilishi.

Shu bilan birga, inson omili va rahbariyat tomonidan risklar haqida ma'lumotlarni yashirish holatlari ichki audit tizimi oldida

jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Bu holatlarni bartaraf etish uchun ichki audit faoliyatini kuchaytirish, profilaktik choralarni jadallashtirish va xodimlar malakasini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ichki audit tizimi banklarda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, ularni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Ichki audit natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar bank rahbariyatiga strategik qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ichki audit faoliyatini takomillashtirish, uning huquqiy, tashkiliy va metodologik asoslarini zamon talabalariga moslab borish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli nizomi. 2015-yil 14-iyul.
2. Toshpulatov D.A. Tijorat banklarida muammoli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati –T.: 2021, 56 b.
3. Курныкина О.В. Аудит учета кредитных операций банка при применении международных стандартов. Учет. Анализ. Аудит. 2023; 10(3):58-64.
4. European Central bank Guidance to banks on non-performing loans, 2017. https://www.bankingsupervision.europa.eu/ecb/pub/pdf/guidance_on_npl.en.pdf
5. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.